

UDK:637662.3

JUNNING IFLOSLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**Yangiboyev Abdimalik Eshmurodovich***Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali q.x.f.f.d., (PhD) dotsenti***Aminova Shoira Furqat qizi***Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali assistenti (stajyor-tatqiqotchi)*

Annotatsiya: Mamlakatning shunday og'ir yaylov sharoitiga moslashgan yaylov chorvachiligining asosi bo'lgan mayda shohli mollar (qo'y, echkilar), tuyalar urchitilib, ko'paytirilmoqda va ulardan insonlar ehtiyoji uchun zarur bo'lgan ekologik toza, go'sht, sut, teri va jun olinmoqda. Junni ifloslantiruvchi chiqindilardan, eng yomoni hayvonlar go'ngi, siydigi va tikonli o'simliklar hisoblanadi. Go'ng, siydik va tuproq aralashmasidan ifloslangan jun - shatmoqli jun deb atalib, uni bu iflosliklardan tozalash juda qiyin kechishi va jun tolalarining bir qator texnologik xususiyatlari yomonlashgani uchun amalda jun tayyorlash andozalarida ular past navlarga kiritiladi va kamchilikli jun hisoblanadi.

Kalit so'zlar: jun, iqlim sharoiti, dag'al junlar, o'simlik urug'lari, tabiiy tola, tvit, qo'y, tuproq.

Аннотация: Разводят и разводят мелкий рогатый скот (овцы, козы) и верблюдов, которые составляют основу пастбищного животноводства, адаптированного к столь суровым пастбищным условиям страны, и из них производят экологически чистое мясо, молоко, шкуры, необходимые для потребления человеком. и берется шерсть. Среди отходов, загрязняющих шерсть, наихудшими являются навоз животных, моча и колючие растения. Шерсть, загрязненная смесью навоза, мочи и почвы, называется грязной шерстью. От этих примесей ее очень трудно очистить, и некоторые технологические свойства шерстяных волокон ухудшаются.

Ключевые слова: шерсть, климатические условия, грубая шерсть, семена растений, натуральное волокно, твид, овцы, почва.

Annotation Small cattle (sheep, goats) and camels are bred and raised, which form the basis of pasture livestock farming, adapted to such harsh pasture conditions of the country, and from them ecologically clean meat, milk, skins necessary for human consumption are produced. and wool is taken. Among the wastes that pollute wool, the worst are animal manure, urine and thorny plants. Wool contaminated with a mixture of manure, urine and soil is called dirty wool. It is very difficult to clean it from these impurities, and some technological properties of wool fibers deteriorate.

Keywords: wool, climatic conditions, coarse wool, plant seeds, natural fiber, tweed, sheep, soil.

Kirish: Respublika hududining umumiy maydoni 44,89 mln.ga ni tashkil etib, shundan 18 mln.ga sahro, dasht va cho'llar jumlasiga to'g'ri keladi. Mamlakatning sahro va cho'llarining iqlimi, yaylovlari va unda o'suvchi o't-o'lanlarning botanik tarkibi va hosildorligi jihatidan rangbarangdir.

Yaylovlarning qariyib 30 foizi lalmikor bo'lganligi sababli qurg'oqchilik yillarida deyarli yaylov sifatida foydalanib bo'lmaydi. 1,5 mln. ga yaylov maydonlarida ko'chma qum ko'chib yurishi kuzatiladi. Bunday maydonlardan ham yaylov sifatida foydalanib bo'lmaydi. Bundan tashqari bu xududlar iqlimi keskin o'zgaruvchan bo'lib, tuprog'ining tarkibi o'ta kambag'al bo'lganligi sababli yaylov hosildorligi past bo'ladi.

Bu o'simlik bo'yi 0,5-1,0 metrgacha bo'lib, urug'i pishib etilgach, yuzlab tikonli ilmoqchalari bilan suyaklab o'tayotgan mayda shoxli chorva hayvonlarining jun tolalariga mahkam ilashadi, bir-biriga yaqinlashishi natijasida boshqa hayvonlarga ham o'tishi kuzatiladi. Bu urug'lar chorva hayvonlari erga yotganda ularning juniga mahkam yopishib qoladi.

Junni yuvish va mashinada ishlov berish vaqtida begona o'simliklar urug'lari sinadi va ilmoqli tikonlari ipga o'xshab (ayniqsa qariqiz o'simligida) cho'zilib, bo'linib ketadi. Bu sinib bo'laklangan tikonlar jun tolasiga mahkam yopishib qoladi. Bunday ifloslangan junni tozalashda qiyinchiliklar tug'diradi.

O'simlik urug'larining qo'y jun tolalariga ilashib qolishi bu o'simlik urug'ining keng tarqalishiga imkon beradi. O'simlik urug'ining yana bir turlari urug'i pishib etilgach yoyilib ochiladi. O'simliklarning bunday urug'lari qo'y junlari uchun o'ta zararli hisoblanib, ularni jun tolalaridan ajratish juda mushkul bo'ladi. Ilashish xususiyatiga ega bo'lgan bu o'simliklar bilan zararlangan yaylovlarda chorva mollarining boqilishi qo'y junlarining o'ta ifloslanishiga sabab bo'ladi.

(1-rasm)



a- kaliforniya qo'ytikoni (durnishnik kaliforniyskiy), b- oddiy qo'ytikon (durnishnik obiknovenniy), v-tikonli qo'ytikon (durnishnik kolyuchiy).

Umuman olganda bu holat respublika sharoitida yoz oyining oxirlarida kuzatilib, to kuz oylarigacha, yaylovlardagi o'simliklarning yopishqoq urug'lari pishib etilgan holatlarda ko'proq kuzatiladi. Bunday o'simliklar sug'oriladigan maydonlarda, ekin maydonlari uvatlarida ko'plab o'sadi. Qo'ylarni kuz oylarida ekinlari yig'ishtirib olingan ekin maydonlarida qo'ylarni boqilishi natijasida ularning junlarining ifloslanishiga sabab bo'ladi.

Tashqi ko‘rinishi, ichki tuzilishiga qarab tivit tolalari ingichkaligi 15 - 27 mkm atrofida bo‘lib, ichki tuzilishi bo‘yicha tangachasimon va qobiq qavatlariga ega. Tangachali qavat xujayralari asosan xalqasimon shaklida bo‘lib, ular mayin qo‘y junlarining barchasini, yarim dag‘al va dag‘al qo‘y junlarida, tuya va echki juni kokilchalarining asos qismini tashkil qiladi.

Quruq tolalar uzun bo‘lib, har-xil omillar ta‘sirida tolaning uch qismida yog‘li ter bo‘lmaydi. Texnologik xususiyatlari jihatidan quruq tolalar qilchiq va o‘lik tolalar o‘rtasida oraliq masofani egallaydi. Ularda ham qilchiq tolalar singari tangachali qobiq va o‘zak qavatlari mavjud bo‘lib, ularning uch qismi quruq va mo‘rt bo‘ladi.

Tarkibidagi jun tolalarining xil va shakllariga qarab qo‘y junlari mayin, yarim mayin, yarim dag‘al va dag‘al turlarga bo‘linadi.

Dag‘al junlar tarkibida barcha xil va turdagi jun tolalari uchraydi. Yarim dag‘al junlarga nisbatan ularni tivit tolalari miqdori kamroq bo‘ladi, qilchiq tolalari esa ko‘proq bo‘ladi. Dag‘al junlar O‘rta Osiyo mintaqasida qorako‘l, jaydari, hisor, edilboy va boshqa zotlardan olinadi.

Tolalar ingichkaligi juning muhim texnik xususiyatlaridan hisoblanadi. Tolalarning diametriga qarab, jun tolasining ingichkaligi aniqlanadi.

Barcha to‘qimachilik tolalari orasida jun tolalarining ingichkalik amplitudasi nisbatan keng chegaralarda o‘zgaruvchidir.

Unchalik ingichka bo‘lmagan, ammo tola uzunligi bo‘ylab tekis ingichkalikdagi jun tolalarini mayin, va yarim dag‘al qo‘y junlarida uchratish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi miqyosida amal qilinib kelingan sanoat tasnifi bo‘yicha, bir xil tolali barcha junlar sifat raqami bo‘yicha tola ingichkaligi me‘yori ko‘zda tutilgan. Masalan, 80-sifatga kiruvchi junlarda tolalar ingichkaligi 14,5-18,0 mkm, 60-sifatda 23,1-25,0 mkm, 50-sifatga 29,1-31,0 mkm.ga teng bo‘lishi lozim.

Tabiiy tola uzunliklari mayin va yarim mayin jun beradigan qo‘ylar juni yapog‘ida, jun taxtachalari va taxtacha kokilchalari balandligi bo‘yicha aniqlanadi, bunda 2 xil o‘lcham ko‘rsatkichi, ya‘ni jun tolimlari va tolim asosini tashkil qiluvchi tivit balandligi olinadi. Jun tolalarining uzunlik bo‘yicha o‘sishi ko‘plab omillar ta‘sirida yuz beradi.

Tajriba namunalariidagi tolalarning uzunliklariga qarab, barcha turdagi bir hil tolali junlar movutbop yoki apparatbop hamda kamvol gazlamabop turlarga bo‘linadi. Eng ko‘p jingalaklanish tivit tolalarida (1 sm uzunlikda 6-8 jingalaklik), eng kam jingalaklanish dag‘al, qilchiq tolalarida bo‘ladi. Jun tolalari dag‘allasha borgan sari ularning jingalaklari ham yiriklasha boradi. Mayin junga nisbatan, yarim mayin jundagi jingalaklanishlar yirikroq bo‘ladi.

1-jadval.

Bahorgi qirqim qo‘y junlarining o‘simlik poyalari va urug‘lari bilan ifloslanish darajasiga asosan guruhlanishi

Suruvning tartib raqami	Yillar bo‘yicha	Xillangan jun yapog‘lari soni, dona	Shu jumladan holat guruhlari bo‘yicha					
			Me‘yorli		Xas-tikonli I-guruh		Xas-tikonli II-guruh	
			soni	%	soni	%	soni	%
1-suruv	2013	390	324	83,4	55	14,5	11	2,8
	2014	376	319	84,8	46	12,3	11	2,8
2-suruv	2013	426	369	77,5	38	18,5	19	4,0
	2014	451	357	79,1	76	16,8	18	4,1

1-suruvda 2013 yilda I-guruh junlari, 2014 yilga nisbatan 2,2% ga kamaygan bo‘lsa, II-guruh junlarida o‘zgarish bo‘lmagan. 2-suruvda esa, 2013 yilda xas-tikonli I-guruh junlar, 2014 yilga nisbatan 1,6% ga, II-guruh junlari 0,1% ga oshgan. Qo‘y junlarining ifloslanishiga asosiy sabab, qo‘ylarni haydab boqishda yopishqoq urug‘li o‘simliklar bilan zararlangan yaylovlardan foydalanilgani sabab bo‘lgan.

Qo‘ylarning bahorgi ham kuzgi qirqim junlari bugungi kunga kelib talablari asosida sinflanadi. Bu andoza talablariga binoan dag‘al qo‘y jun yapog‘i, burda va past navli bo‘laklarga ajratiladi. Junning past navlariga asosan, jun yapog‘idan ajragan, qo‘y go‘ngi bilan ifloslangan, shatmoqlangan jun tolalari kiradi.

Jun tolalari loy-tuproq, go‘nglardan tozalanmagan qo‘ra, koshar va qo‘tonlarda qo‘ylarning qamab boqilish natijasida, qo‘y junlari ifloslanib, shatmoqlar hosil bo‘ladi. Bunday tabiiy ifloslangan junlar ko‘proq son, dumba atrofida uchraydi. Bunday ifloslangan junlar tabiiy rangini va tolalar fizikaviy-mexanik xususiyatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Qo‘ylar odatdagi sharoitlarda boqilganda, ularning juniga iflosliklar tashqaridan yopishadi. Bundan ifloslangan jun tolalarining ranglari sarg‘ayib, cho‘zilishga bo‘lgan xususiyatlari pasayadi.

Jizzax viloyati Forish tumanining M.Orolov nomli va “Mustaqillik” shirkat xo‘jaliklarida olib borilgan izlanishlar davomida, qorako‘l zotli qo‘ylarning boqish, yaylovlar, qo‘ra va qo‘tonlarda saqlash sharoitlari taqqoslab o‘rganildi. Ushbu otarda tayyorlanayotgan jun sifati, junning shatmoqlanishi, boshqa kamchiliklari va ularga ta‘sir etuvchi omillar o‘rganildi.

2-jadval.

Qo‘ylarining bahorgi jun qirqimida shatmoq jun salmog‘i, kg

Xo‘jaliklar nomi	Jun vazni					
	Jami		Shundan			
	Qirqilgan jun yapog‘i, soni	Qirqilgan junning umumiy og‘irligi, kg	Me‘yorli jun		Shatmoqli jun	
Jami, kg			foiz	Jami, kg	foiz	
M.Orolov	25	31,38	28,67	91,36	2,71	8,64
Mustaqillik	25	32,78	29,30	89,38	3,48	10,62
Jami:	50	64,16	57,97	90,35	6,15	9,59

2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, bir xil dala sharoitlarida boqilgan qo‘ylarning ikkala suruvida ham qo‘y junlarining shatmoqlanishi kuzatilgan va ularda shatmoqli jun chiqimi o‘rtacha 8-10 foizni tashkil etgan.

Yoz va kuz mavsumida quruq iqlimli va ozuqalarning quruq bo‘lganligi sababli, qo‘y junlarining shatmoqlanish holati kam kuzatilgan. Yuqorida keltirilgan xo‘jaliklarning kuzgi jun qirqish mavsumida, tayyorlangan jun sifati tahlil qilinganida, shatmoqli jun salmog‘i o‘rganilgan. Tahlillar natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

Kuzgi jun qirqimida qorako‘l qo‘ylar va qo‘zi junida shatmoq junlar salmog‘i, kg

Xo‘jaliklar nomi	Qo‘y juni				Qo‘zi juni			
	Qo‘ylar soni	Qirqib olingan jun, kg			Qo‘zilar soni	Qirqib olingan jun, kg		
		Jami	Shatmoq jun chiqimi			Jami	Shatmoq jun chiqimi	
		Og‘irligi	%		Og‘irligi	%		
M.Orolov nomli shirkat xo‘jaligi	25	20,85	1,02	4,87	30	21,6	0,61	2,77
Mustaqillik shirkat xo‘jaligi	25	20,40	1,01	4,93	30	20,8	0,67	3,22
Jami:	50	41,25	2,02	4,9	60	42,4	1,28	2,99

3-jadvallar ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, qorako‘l qo‘ylarining bahorgi jun qirqimida shatmoq jun salmog‘i 9,59 foizni tashkil qilgan bo‘lsa kuzda qirqilgan junlarda shatmoqlanish darajasi ancha past 2,99 foiz bo‘lgan, ya’ni 6,66 foizga kamaygan. Buni shunday izohlash mumkinki, yoz mavsumi davomida qo‘ylar qo‘ra-

qo‘tonlarga qamalmasdan boqiladi. Shu sababli jun tolalarining qo‘y go‘nglari bilan ifloslanish darajasi past bo‘lgan.

Ifloslangan junbidagi iflosliklarga jun tolalari shunday ilashib, chalkashib ketadiki, ular tarkibidan tolalarni to‘liq ajratib bo‘lmaydi. Shu sababli junni birlamchi tozalashda jun tolalarining yo‘qotilishi kuzatiladi va toza jun chiqimi past bo‘ladi.

4-jadval.

Junni birlamchi tozalash apparatida ifloslangan junga ishlov berilganda jun tolalarining yo‘qotilishi
(Qorako‘l qo‘y juni)

Ifloslangan jun namunalari	Namunalar vazni		Tolalar kamomadi	
Tabiiy holatdagi jun				
	Dastlabki og‘irligi. g	Ishlov berilgandan keyingi og‘irligi, g	g	%
I-guruh	400	395	5	1,25
II-guruh	400	390	10	2,50
III-guruh	400	386	14	3,50
O‘ta ifloslangan	400	370	20	5,00
Kimyoviy ishlov berilgan jun				
I-guruh	400	393	7	1,75
II-guruh	400	387	13	3,25
III-guruh	400	382	18	4,50
O‘ta ifloslangan	400	350	50	12,50

4-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajriba uchun olingan namunalarning ifloslanish darajasi oshib borgan sari tolalar yo‘qotilishi oshib borgan. Shu bilan birga kimyoviy ishlov berilgan namunalarda tolalar yo‘qotilishi ko‘proq kuzatilgan. Masalan, tabiiy holatdagi o‘ta ifloslangan jun namunasiga ishlov berilganda toza jun chiqimi 350 g, ya‘ni 92,5 % bo‘lsa, xuddi shu guruhga kiruvchi kimyoviy ishlov berilgan jun namunasida bu ko‘rsatkich 87% ni tashkil etgan.

Bundan shunday izohlash mumkinki, junni mexanik usulda birlamchi tozalashda tolalarning qisqarishi va ularning chiqitga chiqarilishi, jun tarkibida iflosliklar tolalardan mukammal ajratilmasligi sababli tolalar iflosliklar bilan chiqitga chiqariladi.

XULOSA

Bugungi kunda respublikada 19 mln. ga yaqin bosh qo‘y va echki urchitilmoqda. Respublikaning iqlim sharoiti qo‘ychilikni rivojlantirish uchun qulay hisoblanadi. Shu sababli qo‘ychilik respublikaning butun teritoriyasiga tarqalgan. Urchitilayotgan zotlar orasidan tivit jun qoplamasi ko‘proq bo‘lgan qorako‘l qo‘y zoti hisoblanib, ular 5 mln. dan ortiq boshni tashkil etib, cho‘l zonalarida boqiladi. Qo‘ylarning boshqa zotlari tog‘oldi tekisliklarida, hisor zotli qo‘ylar tog‘oldi va tog‘li hududlarida urchitilmoqda.

Qorako'chilik asosan qumli cho'larda (52%), dasht efemerli cho'llarda (40,5%) va tog'oldi yarimcho'llarda (8,0%) urchitilib ko'paytiriladi. Maxsus qorako'chilikka ixtisoslashtirilgan xo'jaliklar asosan Qoraqolpog'iston respublikasi, Navoiy, Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand, Buxoro va Surxandaryo viloyatlarida joylashgandir. Barcha ixtisoslashtirilgan qorako'chilik xo'jaliklarida tayyorlanayotgan respublika ichki va tashqi bozori talablariga asosan, teri, go'sht va dag'al jun mahsulotlaridir.

Qo'y junlari o'simliklarning yopishqoq urug'lari bilan ifloslanishi odatda jun tolalaridan ajralishi qiyin bo'lgan, mahalliy tilda qo'ytikon nomi bilan ataladigan (durnishnik ruskiy, yoki ogorodniy repey, durnishniki kaliforniyskiy, durnishnik obiknovenniy, durnishnik kolyuchiy, o'simlik urug'lari o'ta zararli hisoblanib, bu o'simlikning urug'i qo'y junlarining ifloslanishida eng ko'p uchraydigan va fizikaviy-mexanik xususiyatlari, jundan ajralishining qiyinligi bilan boshqa iflosliklardan keskin ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yusupov S.Y, Bozorov S.R. Junga birlamchi ishlov berish texnologiyasi. – Samarqand, 1998. –B.16 –17.
2. Yusupov S.A. Maxalliy jun tolalariga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish: Dis.kan.tex–T: 2004, 194-b.
3. Yusupov S.Y, Axmedov F. O'zbekistonda qorako'chilikning holati va navbatdagi vazifalar // Zooveterinariya. –T: 2011, №8.-B.34-35.
4. Sherov E., Inoyatov A.I. Turli jun konstitutsiya tipidagi qorako'l qo'ylarning jun mahsuldorligi // Zooveterinariya, Toshkent, 2014. №11.S.29-30.
5. To'xtarov R., Xasilbekov A. Junga birlamchi ishlov berishda namlikning jun sifatiga ta'siri / Ilmiy maqolalar to'plami.Samarqand 2015. –B.178-180.